

BUXORO XONLIGIDA YER EGALIGI MUNOSABATLARI

*Hasanova Ozoda Abdurashid qizi
 Qashqadaryo viloyati
 Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
 Tarix yo'naliishi
 T-133-23 guruh talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlarining tarixiy shakllanishi, asosiy yer mulk turlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'rni tahlil qilinadi. Xonlik davridagi davlat yerlarining (mulki devoniylari), vakolatli shaxslar egaligidagi (mulki xususiy) yerlar, hamda diniy muassasalarga ajratilgan (vaqf) yerlar asosida jamiyatda shakllangan ijtimoiy tabaqlanish, iqtisodiy munosabatlar va boshqaruv tizimi yoritiladi. Yer egaligi bilan bog'liq soliqlar, majburiyatlar va ijarachilik tizimi ham tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, yer egaligi, mulki devoniylari, mulki xususiy, vaqf yerlar, soliq tizimi, ijarachilik, agrar munosabatlar, ijtimoiy tabaqlanish.

Buxoro xonligi O'rta Osiyo tarixida muhim o'rin egallagan davlatlardan biri bo'lib, uning iqtisodiy asosini qishloq xo'jaligi, xususan, yer egaligi tizimi tashkil qilgan. Yer munosabatlari xonlikda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bo'lган.

Ashtarkoniylar davriga kelib Buxoro xonligi hududlari keskin qisqarib ketdi. XVIII asr boshlariga oid manbalarda xonlikka bo'ysunuvchi oltita viloyat: Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratega, Shahrisabz va Xuzor tilga olinadi. Imomqulixon hukmronligi davrida Hisor, Turkiston, Farg'on va Balx viloyatlari vaqtinchalik qayta birlashtirilgan bo'lsada, Abulfayzxon davriga kelib Xiva (viloyati) va Qo'qon xonliklari alohida davlat edi.

Ashtarkoniylar sulolasi Jo'jixon avlodidan bo'lib, XIV asrning oxirlaridan boshlab Ashtarkxon va uning atrofidagi hududlarga hokimlik qilgan. 1556-yilda Rossiya Astraxanni bosib olgach, Ashtarkoniylardan Yormuhammadxon oilasi va qarindoshlari bilan Buxoroga ko'chib keladi. Buxoro xoni Iskandarxon ularni hurmat bilan kutib oladi va o'z qizi Zuhrabegimni Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek Sultonga turmushga beradi. Bu nikohdan Dinmuhammad, Boqi Muhammad va Vali Muhammad ismli uch o'g'il dunyoga keladi. Jonibek Sulton va uning o'g'illari Buxoro xonligida yuqori lavozimlarga ega bo'lib, viloyatlar hokimi sifatida faoliyat yuritadilar.

1601-yilda Boqi Muhammad Buxoro taxtiga o'tiradi va shu bilan Buxoroda Ashtarkoniylar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Bu sulola 175 yil davomida mamlakatni boshqargan. Boqi Muhammad boshqaruv davrida davlat sarhadlarini

mustahkamlashga intilgan. 1602-yilda Eron Safaviylariga qarshi yurish qilib, Balxni egallaydi va ukasi Vali Muhammadni u yerga hokim qilib tayinlaydi. Shuningdek, Toshkent uchun qozoqlarga qarshi kurashib, 1604-yilda ularni yengib, Buxoro xonligi tarkibiga qo'shadi.

Boqi Muhammad vafotidan so'ng, ukasi Vali Muhammad taxtga chiqadi. Biroq qabila beklarining noroziligi kuchayib, Buxorolik amirlar isyon ko'taradi. Natijada, Vali Muhammad asir olinib, qatl etiladi. Uning o'rniga Imomqulixon taxtga chiqadi. U qozoqlar, jung'orlar, qalmoqlar va qoraqalpoqlarga qarshi muvaffaqiyatli harbiy yurishlar olib boradi. 1613-yilda Toshkentni xonlik tarkibiga qo'shadi va o'g'li Iskandar Sultonni u yerga hokim etib tayinlaydi. Ammo Iskandar Sultonning zulmkor siyosati natijasida Toshkentda qo'zg'alon ko'tarilib, u o'ldiriladi. Imomqulixon bu isyonga qarshi qo'shin yuborib, isyonchilarining jazolanishiga buyruq beradi.

Imomqulixon davrida markaziy hokimiyat kuchaysa-da, viloyatlarni o'z qarindoshlariga mulk sifatida taqsimlashi davlatchilik asoslarini zaiflashtirdi. 1645-yilda qozoqlar Movarounnahrga yurish qilib, Xo'jandgacha yetib keladi.

XVI-XVII asr davri haqida aynan Buxoroning ijtimoiy-iqtisodoiy strukturasini haqida va hukmdorlarning shaxsiy fazilatiyu olib borgan islohotlari to'g'risida Yaqin Sharq va Uzoq Sharq davlatlari yozma hujjatlarida uchraydi. Eron va Hindiston bilan olib borilgan diplomatik aloqalari natijasida qoldirilgan hujjatlar ham bunga guvohlik beradi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar Ashtarxoniyalar ilm, madaniyat, san'at va me'morchilikka homiylik qilganlar. Shuning uchun ham Shayboniyalar davrida rivoj topgan fan va madaniyat o'z an'analari bo'yicha ashtarxoniyalar davrida ham davom etdi.

Ashtarxoniyalar davrida ham davom etgan siyosiy parokandalik, urushlar va o'zaro kurashlar mamlakat iqtisodiyotining asosi bo'lgan qishlok xo'jaligiga ham ta'sir etmasdan qolmadidi. XVIII asrga oid ayrim manbalar Zarafshon va Farg'ona vodiysisidagi dehqonlarning o'z yerlaridan qochib ketishi holatlari haqida ham ma'lumotlar beradi. Hukmdorlar soliq va o'lponlarni o'z vaqtida va doimiy yig'ib olish uchun ham mamlakat iqtisodiyotini ko'tarishga harakat qilsalar-da, bu harakatlar aksariyat hollarda samarasiz tugardi. XVII asrning boshlariga kelib ko'plab sug'oriladigan yerlar jo'ybor shayxlariga berilgan. Shariat qonunlariga ko'ra, suv sotilmasligi va sotib olinishi mumkin bo'lmasada, boy amaldor va ruhoniy yer egalari sug'orish kanallarining xo'jayinlari edilar.

Yer egaligi – bu yerni egallah va undan foydalanish huquqini belgilovchi yuridik asoslar (masalan, mulk huquqi, tasarruf qilish huquqi, meros qilib qolgan yerdan doimiy foydalanish va ijaraga olish huquqi) orqali yerga egalik qilish shaklidir. Bu yerlar xo'jalik faoliyatiga jalb etilib, bozor iqtisodiy tizimining bir qismiga aylanadi. Yer egaligi yer egasiga nafaqat huquqlar, balki ayrim majburiyatlarni ham yuklaydi.

Markaziy Osiyo tarixida yer egaligining turli shakllari – amlok (davlat yeri), vaqf (diniy muassasalar uchun ajratilgan yer), mulk (xususiy yer), tanho (xizmat evaziga berilgan yer) mavjud bo‘lgan. Buxoro, Qo‘qon va Xiva xonliklarida ko‘plab yerlar hukmdorlar qo‘lida bo‘lib, ular odatda nasldan-naslga o‘tgan va ijaraga berilib, dehqonlar tomonidan ishlangan. 19-asrning o‘rtalariga kelib, Buxoro xonligidagi yerlarning 65 foizi shunday shaklda edi. Xonlar o‘zlariga yaqin bo‘lgan odamlar, yirik yer egalari yoki ruhoniylarga xizmat evaziga yerlar tortiq qilib, ularni vaqtinchalik va shartli egalarga – tanholarga aylantirgan.

Rossiya imperiyasi Turkistonni egallaganidan keyin esa bu tizimga o‘zgarishlar kiritildi: amlok yerlar to‘liq, vaqf va mulk yerlar esa qisman imperiya mulkiga aylantirildi.

Ya’ni, Buxoro xonligida yer egaligi quyidagi shakllarda mavjud edi:

- Mulki devoniy — davlatga tegishli yerlar bo‘lib, undan olinadigan daromad xazinaga tushardi.
- Mulki xususiy — boydar, amaldorlar, sarkardalar kabi shaxslarga tegishli yerlar.
- Vaqf yerlar — masjid, madrasalar kabi diniy muassasalarning ehtiyojlari uchun ajratilgan, sotilishi yoki meros qilib berilishi mumkin bo‘lmagan yerlar.

Buxoro amirligining iqtisodiy siyosatini, asosan, yerga egalik munosabatlari tashkil etadi. Daromad manbai ham o‘sha davrda mavjud boshqa xonliklar – Xiva va Qo‘qon xonliklari singari yerdan keladigan soliqlardir.

Har bir yer egaligi shakli o‘ziga xos soliq va majburiyatlarga ega edi. Davlat yerlaridan foydalanilgan taqdirda xiroj, baj, salg‘u kabi soliqlar olinardi. Yer egalari esa o‘z navbatida ijarachilarga yer berib, ulardan hosilning ma’lum qismini olgan.

Dehqonlar ko‘pincha o‘zlariga tegishli bo‘lmagan yerda ishlashga majbur bo‘lgan. Ular yer egalariiga yillik hosilning muayyan qismini topshirish, ayrim hollarda esa bepul mehnat qilish (begar) majburiyatida bo‘lganlar.

Yerga egalik qilish darajasi jamiyatda shaxsning mavqeini belgilovchi asosiy omil hisoblangan. Ko‘p yerga ega bo‘lgan shaxslar ko‘proq boylik, obro‘ va hokimiyatga ega bo‘lganlar. Bu holat jamiyatda tabaqalanishning kuchayishiga olib kelgan.

Shuningdek, Kafsan – mulkdor va yer egasining soliqlardan tashqari xirmondan olinadigan haqi. Muhrona – yig‘im-terim mahali xirmondagи don uyumlari ro‘yxatga olinib, muhrlangan. Muhr loy yoki tactachadan tayyorlangan bo‘lib, xirmondagи don u olinmaguncha hech kimga sotilmagan. Agarda kimdir o‘g‘irlik qilib qo‘lga tushib qolsa, unga nisbatan 52 tangagacha jarima solingan yoki shunga loyiq mol-mulki undirilgan.

Hosildorlik past bo‘lgan davrlarda ayrim soliq chegirmalari belgilangan. Davlat xizmatini bajarayotgan amaldorlar xiroj va tanoba kabi majburiyatlarning bir qismini to‘lashdan ozod qilingan. Shuningdek, hukmdor avlodlari ham soliq to‘lashdan ozod bo‘lishgan. Viloyatlarda yig‘ilgan soliqlar teng ikkiga bo‘lingan: yarmi viloyat hokimida qolgan, qolgan yarmi esa “to‘qson tortiq” shaklida amir saroyiga yuborilgan. Ushbu yuk quyidagilardan iborat bo‘lgan: 9 dona zardo‘zi buxcha, 9 ta gilam, 9 ta mol gilam, va har birida 10 ming tanga bo‘lgan 9 qop. Bular bilan birga viloyatning daromad va xaratlarini aks ettiruvchi daftар ham topshirilgan.

Suruvona esa Buxoro amirligi davrida yarim o‘troq chorvador aholiga qo‘yilgan jarima bo‘lib, bu ular tomonidan davlatga qarashli ekin maydonlariga, yoki hukmdor hamda amaldorlar yerlari va yaylovlari chorva mollarini haydab o‘tkazganliklari uchun belgilanardi.

Amir dalalarni kezib chiqqan vaqtarda hamda harbiy yurishlar chog‘ida aholiga qo‘shimcha soliq va to‘lovlar yuklatilgan. Jumladan, bunday favqulodda hollarda “jo‘l” deb atalgan maxsus soliq joriy etilgan bo‘lib, bu tartib Amir Shohmurod davrida paydo bo‘lgan. Keyinchalik, Amir Muzaffar hukmronligi davrida “aminona” nomi bilan mashhur bo‘lgan yangi turdagи soliq kiritilgan. Bu soliq tovar va mol-mulk qiymatining 1,5 foizi miqdorida undirilgan bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan doimiy soliq shakliga aylangan.

Asosiy soliqlardan tashqari, savdo-sotiq maqsadida mollarni daryo orqali qayiqda tashiganlardan ham maxsus yig‘imlar olingan. “Suv puli” deb atalgan bu to‘lov daryo, kanal, zovur yoki ariqlardan mol olib o‘tilganda to‘lanadigan haq bo‘lgan. Ushbu soliq aholi orasida ularning moliyaviy holatidan qat’i nazar bir xil tarzda undirilgan.

Shuningdek, “ko‘prik puli” deb atalgan yig‘im ham mavjud bo‘lib, bu mahalliy yoki hukumat tasarrufidagi ko‘priklardan mol olib o‘tayotganlardan undirilgan to‘lov hisoblangan.

Dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholiga esa yer solig‘iga qo‘shimcha tarzda, har bir tanob bog‘ yoki poliz uchun maxsus soliq – “tanob puli”, shuningdek, bedazorlardan foydalanish uchun “alaf puli” to‘lash majburiyati yuklatilgan. Aksariyat hollarda bu ikki turdagи soliq umumiyl nom bilan “tanobona” yoki “tanob puli” deb atalgan. Ushbu soliqlarning miqdori hududning bozorga yaqinligi va boshqa omillarga qarab farqlanib turgan.¹

XIX asrning 1850-yillari oxirlarida, ya’ni Amir Nasrullo davrida ushbu soliqlarga muayyan o‘zgartirishlar kiritilgan.

Alaf puli – asosan, bedazorlar, mevali bog‘ va uzumzorlardan olingan soliq turi.

¹ Bobomurodov Sh. Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi. – Toshkent: Fan, 2001.

Tanob puli – mevazorlar, bedazorlardan yig‘ib olingen hosil miqdoridan olingen pul. U beda solig‘i, bog‘ solig‘i deb ham yuritilgan.

Barg puli – voha va vodiylarda o‘siriladigan tutzorlardan olinadigan soliq. Buxoro amirligida ana shunday tutzorga ega bo‘gan dehqonlar har yili bahorda tutzorlarni kesib, ipak qurti boqqanlar, shu orqali har yili bir marotaba soliq to‘lab turganlar. Lekin xususiy xonadonlarda o‘sirilgan tut daraxtlaridan soliq olinmagan.

Buxoro amirligi davrida suv tegirmonlari va objuvozlar egalaridan ma’lum miqdorda pul yoki natural shakldagi yig‘imlar undirilgan. Soliqlarni yig‘ish, ularni hisobga olish va boshqarish bilan devonbegi – ya’ni moliya ishlari uchun mas’ul amaldor shug‘ullangan. U o‘lpon daftarlari, ya’ni soliqlar ro‘yxatini tuzgan va yuritgan.

“Jo‘ycha puli” deb atalgan to‘lov dehqonlar tomonidan kichik suv inshootlari – ariq va zovurlardan foydalanilganligi uchun to‘langan. “Objuvoz puli” esa sholi, suli, masxar kabi ekin turlarini objuvoz yordamida sug‘orish evaziga undirilgan bo‘lib, bu soliq miqdori hududlarga qarab farq qilgan.

“Tegirmon puli” yoki “Osiyo puli” suv tegirmonlaridan foydalanganlik uchun yiliga 20 dan 100 tangagacha bo‘lgan miqdorda to‘langan soliq bo‘lgan. Shuningdek, “chig‘ir puli” ham mavjud bo‘lib, bu sug‘orma dehqonchilikda chig‘irdan foydalanan yerlar uchun undirilgan. Agar dehqon bir tanob yerni chig‘ir bilan sug‘organ bo‘lsa, u albatta bu soliqni to‘lashga majbur edi – hattoki, qarzdor bo‘lsa ham.

“Cho‘p puli” esa ayrim manbalarda “o‘tin puli” yoki “xas puli” deb yuritilgan. Bu soliq o‘rmonlar, to‘qaylar, saksovulzorlar va boshqa tabiiy resurslardan aholining o‘simlik va daraxtlarni kesib olishlari bilan bog‘liq holda joriy etilgan edi.

Buxoro amirligi asosan Hindiston, Afg‘oniston, Eron, xitoy bilan savdo aloqalarini olib borgan. Mamlakatning Samarqand va Buxoro shaharlariga ko‘plab chet ellik savdogarlar kelib turishardi.

Shu o‘rinda qo‘sishma qilish lozimki, XVIII asrning birinchi yarmida Rossiya va O‘rta Osiyo o‘rtasidagi savdo aloqalarining kengayishida Orenburg shahri muhim ro‘l o‘ynagan. Ayniqsa, yangi Orenburg savdo yo‘lining ochilishi bu shaharni ikki hudud o‘rtasida savdo almashinushi markaziga aylantirdi. Bu holat esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri Rossiya-Hindiston savdo munosabatlarining shakllanishiga yo‘l ochdi. Rossiyada diplomatik vazifalarni bajargan buxorolik savdogar Irnazar Maksutov Orenburgga ko‘plab tovarlarni yetkazib, bu yerga Buxoro va Hindistondan kelgan savdogarlarni jalb qilishga muvaffaq bo‘ldi. Umuman olganda, ushbu davr mobaynida Rossiya va Buxoro xonligi o‘rtasidagi savdo aloqalari mustahkamlanib, iqtisodiy hamda siyosiy yaqinlik kuchaydi. Buxoro xonligi va Hindiston o‘rtasidagi aloqalar qo‘sishchilikka asoslangan bo‘lsa-da, Eron bilan munosabatlar esa, bu xonlikning Eron hududlarini egallash maqsadida olib borgan harbiy harakatlari tufayli ancha murakkab

edi. Shunga qaramay, Eron, Hindiston va Afg'onistondan ko'plab vakillar Buxoroga savdo ishlari bilan kelishgan va turli yarmarkalarda ishtirok etishgan. Hatto Buxoro shahrida hind savdogarlari yashagan maxsus mahallalar mavjud bo'lган. Buxoro va Balxlik savdogarlar esa tovar olib kelish maqsadida ko'p hollarda Hindistonga sayohat qilishgan. Hindistonga borgan fransuz sayyohi Fransua Bernening so'zlariga ko'ra, Dehli meva bozorlarida Eron, Balx, Buxoro va Samarqanddan keltirilgan quritilgan mevalar sotilgan. Hozirgi zamонави tilda aytganda, o'sha davrda keng ko'lamlı eksport va import amaliyotlari amalga oshirilgan.

Movarounnahrning iqtisodiy hayotida Samarqand, Buxoro va Toshkent kabi yirik markazlar alohida o'rın tutgan. Toshkent shahri va uning atrofidagi hududlar savdo-sotiқ uchun muhim nuqta bo'lган, bu yerda turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar uchun karvonsaroylar qurilgan. Ayniqsa, Chirchiq daryosi bo'yidagi tog' yo'llari atrofida ham karvonsaroylar qad rostlagan. Toshkentning dasht zonasi bilan chegaradosh vohada joylashuvi shahar xo'jaligining rivojiga turtki bo'lган. Shunga qaramay, tarixiy manbalarda ko'chmanchi qabilalar tomonidan uyushtirilgan hujumlar to'g'risida ham ma'lumotlar uchraydi. Shaharni o'rab olgan mudofaa devorlari esa aholi xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

Buxoro esa Shayboniyalar davridayoq poytaxt maqomini olgan bo'lib, Ashtarxoniyalar sulolasining siyosiy, harbiy va ma'muriy markazi sifatida faoliyat yuritgan. Hunarmandchilik bu davrda ko'proq shaharlar atrofida rivojlangan bo'lsa-da, iqtisodiy aloqalarning susayishi va natural xo'jalikning kuchayishi natijasida ko'plab yirik qishloqlarda ham hunarmandchilik faoliyati kengaydi. Aholining ehtiyojlari ko'proq mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar orqali qondirilgan. Xususan, to'qimachilik va unga yaqin sohalar ushbu davrda yanada taraqqiy etgan.

Shuni ham aytish joizki, siyosiy beqarorlik va o'zaro urushlar hukm surgan murakkab davrda ham dehqonlar o'z faoliyatlarini davom ettirishga harakat qilganlar. Buxoro xonligining asosiy dehqonchilik maskani Zarafshon vodiysi bo'lган. So'nggi o'rta asr mualliflari boshqa hududlarda ham ekin maydonlari va bog'-rog'lar mavjudligi haqida ma'lumot bergenlar. Masalan, Farg'ona "go'zal bog'lari va dalalari" bilan, Qarshi "sug'oriladigan yerlari" bilan, Toshkent vohasi esa "tog'li g'allakor hududlari" bilan tilga olingan. Termiz "mazali qovunlari va g'allasi", Shahrisabz esa "serhosil yerlari" bilan mashhur bo'lган. Ashtarxoniyalar davrida sug'oriladigan yerlarda bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz ekinlari yetishtirilgan, lalmi yerlarda esa bug'doy, arpa, qovun, tarvuz kabi mahsulotlar ekilgan. Garchi urushlar dehqonchilikka salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, tinchlik davrida yerlar yuqori hosil bergen.

Shuningdek, Xon davlat tasarrufidagi yerlar hamda aholisi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, yirik din arboblari, sayyidlar va ulamolarga suyurg'ol tarzida, harbiy qismlar rahbarlari hamda saroy mansabdorlariga esa tanho shaklida

taqdim etgan. Suyurg‘ol yerlar egalaridan davlat xazinasi uchun soliq undirilmagan. Tanho tarzida berilgan yerlar esa mulkdorlarining shaxsiy mulki hisoblanmagan, balki ularga bu yerlarda mehnat qilayotgan dehqonlardan soliq yig‘ish vakolati berilgan. Shuningdek, xon o‘ziga alohida xizmat ko‘rsatgan kishilarga ham yer va mulklarni hadya etgan, bunday yerlar soliqdan ozod etilib, “mulki xurri xolis” deb atalgan. Xususiy yer egalari odatda bu yerlarni yersiz dehqonlarga ijaraga berib, katta foyda ko‘rganlar. Diniy tashkilotlarga berilgan yerlar vaqf hisoblanib, ular ham soliqdan ozod bo‘lgan. Yerni sotish, hadya qilish yoki vaqfga aylantirish huquqi faqat hukmdorga tegishli bo‘lgan. Shartli yer egalari suyurg‘ol, iqto, tanho yoki tiul kabi nomlar bilan atalgan. XVII-XVIII asrlarga kelib, suyurg‘ol tushunchasi ma’nan o‘zgaradi — bu davrda suyurg‘ollar ko‘proq ruhoniylar, sayyidlar, xo‘jalar, shayxlar, ulamolar hamda shoirlarga hadya qilina boshlagan. Mahmud ibn Valining ta’kidlashicha, agar hukmdor yerlarni hadya tarzida beradigan bo‘lsa, ulamo va sayyidlarga ajratilgan yerlar suyurg‘ol, harbiylarga berilgan yerlar esa tanho deb atalgan.

Ma’lumot o‘rniga shuni aytamizki, Shayboniylar davrida Buxoro xonligi diniy jihatdan ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi. O‘rtal Osiyo hududida, xususan, Buxoroda Islom dini chuqur ildiz otgan edi, va bu davrda Islomning ta’limotlari, uning tarixi, huquqiy va diniy tizimlari Buxoro xonligi hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Shayboniylar davrida, Buxoro xonligi va uning atrofidagi hududlarda, shuningdek, ilm-fan va diniy tafakkur markazlari shakllandı. Buxoroda o‘sha davrda faoliyat yuritgan yirik olimlar, ulama, va mutafakkirlar o‘z asarlarida diniy sohalarda yangiliklar kiritdilar. Shayboniylar davrida Buxoroda ko‘plab masjid va madrasalar qurildi, ularning ba’zilari hozirgi kunda ham o‘rganilmoqda. Ularning orasida Buxoro Madrasasi (Shayboniylar tomonidan qurilgan madrasa) o‘zining katta ahamiyatiga ega. Bu davrda diniy ta’lim juda yuqori darajaga ko‘tarildi va Buxoro Markaziy Osiyoda diniy bilimlarning markaziga aylanishni davom ettirdi.

Shayboniylar davrida moliyaviy tizim va soliq siyosati ancha murakkab va ko‘p qirrali bo‘lgan. Bu davrda boj, o‘lpon, soliq, jarima hamda majburiy to‘lovlarning 40 dan ortiq turi mavjud edi. Aholi, ya’ni oddiy xalq, yer va suvdan foydalanganliklari uchun alohida to‘lovlар to‘lagan. Bundan tashqari, ular amaldorlar foydasiga ham ma’lum miqdorda to‘lovlarni amalga oshirganlar. Shuningdek, shaharlardagi himoya devorlari, diniy binolar – masjid va madrasalar, hamda sug‘orish inshootlari kabi muhim infratuzilma obyektlarining qurilishi yoki ta’miri uchun maxsus to‘lovlar joriy etilgan. Yo‘llar va ko‘priklar qurilishi uchun ham xalqdan turli shakldagi mablag‘lar yig‘ilgan.

Buxoro xonligi davrida bu moliyaviy va soliq ishlarini tartibga solish maqsadida maxsus devonxona faoliyat yuritgan. Ushbu devonxonada moliyaviy operatsiyalar, soliqlar, ijara to‘lovlari hamda savdo-sotiqli dan tushgan daromadlar alohida daftarlar

orqali hisobga olingan. Bu daftarlarda nafaqat soliq miqdori va turi, balki ularni to'lagan shaxslar yoki guruhlar haqidagi ma'lumotlar ham qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro xonligidagi yer egaligi tizimi o'sha davr jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmasini aks ettirib, boshqaruv tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan. Shuningdek, Buxoro amirligida yerga egalik qilish va undan foydalanish umuman yerga egalik munosabatlari shariat qonun-qoidalariga asoslanib tartibga solinganini ko'rish mumkin. Yer egasi ham, unda ishlovchi ham bu tartibga bevosita bo'ysungan. Unga o'zgartirish kiritish faqat hukmdor – amirning islohotlari tufayligina bo'lgan. Yig'im va to'lovlar amir tayinlagan vakillar tomonidan yig'ib borilgan. Mazkur yer munosabatlari hozirgi tarixiy-ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi, Xorazm va Qo'qon xonliklari. Darslik. – Toshkent: «BAYOZ», 2022. – 148 b.
2. Karimov A. O'rta asrlar Markaziy Osiyo tarixidan ma'lumotlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2005.
3. Bobomurodov Sh. Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi. – Toshkent: Fan, 2001.
4. Vohidov Sh. O'rta asrlarda yer egaligi munosabatlari. – Toshkent: Sharq, 1998.
5. Qosimov B. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. 2-kitob. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
6. Xo'jayev M. Buxoro xonligi davrida mulkchilik munosabatlari. – Samarqand: Imkon, 2010.
7. Mahkamova M. Vaqf yerlarining ijtimoiy ro'li. – "Tarix va haqiqat" jurnali, 2015, №2.